

Galdagi ochiq darsda

✘ Joriy yilning 27 mart kuni soat 08:30 da 612-xonada “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedrasini mudiri, dotsent A. Berdishevning “Energiya tejamkorlik asoslari” fanidan “Quvvat koeffitsienti va uni oshirish usullari” mavzusidagi ochiq darsi bo‘lib o‘tdi.

Talabalar yo‘qlama qilinib, jurnallar to‘ldirilgach, ma‘ruza mavzusi tanishtirildi va ma‘ruzaning asosiy qismiga kirishishdan oldin o‘tgan mashg‘ulotlar savol va tushunmagan masalalar bo‘yicha qisman tushuntirildi. Talabalar darsga 100% qatnashishdi. Darsda kompyuter texnikasidan (Power Point, Core Drive va boshqa dasturlar yordamida) foydalanib mavzu materiallari talabalarga o‘zbek tilida ravon yetkazib berildi. Dars talabalar bilan interaktiv usulda jonli muloqot savol-javob tarzida olib borildi. Kirish qismida davlatimizda olib borilayotgan ishlarga, Prezidentimizning sohaga oid qaroriga e‘tibor qaratildi. Mavzuni amaliyotdagi muammolar bilan bog‘liq holda yoritib berildi. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarishning mavsumiylikidan kelib chiqqan holda, o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘lab talabalarga yetkazildi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov